

TARJIMADA TARJIMA USLUBLARINING MOHIYATI

Xalilova Guzal Abdupattahovna

Senior Teacher

Uzbekistan State World Language University

Annotatsiya: Mazkur bitiruv ishida tarjima uslublari va ularning xossalari va borasida o'zbek va xorij olimlarining fikrlari va tasnifdflari yoritilgan. Tarjimada qollaniladigan semantik, kommunikativ, moslashtirish, erkin, ideomatik, ijodiy va mualliflashtirilgan tarjima uslublari batafsil to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tarjima, yozma tarjima, badiiy tarjima, tasnif, aslyat matni, tarjima matni, uslub, semantik, kommunikativ, nazmiy, moslashtirish, erkin, idiomatik, ijodiy, mualliflashtirilgan tarjima.

Аннотация: В статье описаны мнения и классификации узбекских и зарубежных ученых по методам перевода и их свойствам. В статье подробно рассматриваются семантические, коммуникативные, поэтические, адаптивные, свободные, идиоматические, творческие, авторизованные методы перевода, используемые в переводе.

Ключевые слова: перевод, письменный перевод, художественный перевод, классификация, оригинальный текст, переведенный текст, стиль, смысловой, коммуникативный, поэтический, адаптивный, свободный, идиоматический, творческий, авторский перевод.

Annotation. The article describes the opinions and classification of Uzbek and foreign scientists on translation methods and their properties. The article discusses briefly the semantic, communicative, poetic, adaptive, free, idiomatic, creative, authorized translation methods used in translation.

Key words: translation, written translation, literary translation, classification, original text, target text, style, semantic, communicative, poetic, adaptive, free, idiomatic, creative, author's translation.

Azal-azaldan dunyo xalqlarining tillari ularni bir-birlari bilan muloqot qilishda ma'lum darajada muammolarni keltirib chiqargan. Bunga ko'p millat va elatlarning bir-biri uchun tushunarsiz tillarda muloqot qilishi sabab bo'lgan. Mana shunday muloqotdagi qiyinchiliklarni bartaraf etuvchi omil tarjima va uni amalga oshiruvchi vosita tarjimon xisoblanadi. Shuning uchun tarjimoni ikki til, tarjimonni ikki millat o'rtasidagi vositachi deb tushunishimiz mumkin.¹

Tarjima uslubi tarjima jarayonida matnning uslub jihatidan turiga va tarjimonning maqsadiga qo'ra tanlanadigan usul sanaladi. Ko'plab xorij tarjimashunos olimlar tomonidan taklif etilgan "tarjima metodi" tarjimoni amalga oshirish usullari, yo'llari, uslublari belgilab beradi va matnning uslub jihatidan turiga ko'ra tanlanishini

¹ Yo'ldoshev U.R. "Tarjima nazariyasi" O'quv qo'llanma. – Samarkand "Samarkand davlat chet tillar instituti" nashriyoti, 2021. – 126b.

inobatga olib, shuning tadqiqot ishimiz tarjimashunoslik sohasida olib borilayotganligi uchun mazkur tadqiqotda biz “tarjima metodi”ga nisbatan “tarjima uslubi” terminini qo‘lladik. Tarjimashunoslik tarixida “tarjima uslubi” termini, dastlab, Mark Tuliyl Siseron (m.avv.106–43) tomonidan qo‘llangan. Siseron ilk bora so‘zma-so‘z va ma‘noviy tarjima uslublaridan foydalangan.¹ Nazarimizda, Siseron tarjima jarayonida aslyat matnini boshidan oxirigacha so‘zma-so‘z yoki ma‘noviy tarjima metodidan foydalanib, tarjima matniga o‘giran. N.N.Nelyubinning lug‘atida “tarjima uslubi tarjima usulidan farq qiladi va keng omma tomonidan qabul qilingan qonuniyatlarga asoslanmaydi, biroq tarjima turi va usullarini hisobga olib, tarjimon tomonidan biror maqsadga yo‘naltirilgan o‘zaro bir-biriga aloqador usullar tizimini amalga oshirish jarayoni”, deya ta’riflanadi. N.Nelyubinning fikriga qo‘shilgan holda, tarjima uslubi va usuli bir-biridan farq qilib, uslub butun matn uchun tanlanadi, usul esa matndagi frazeologik birliklar, madaniy so‘zlar, aforizmlar, qo‘shma so‘zlar kabi kichik leksik birliklarni o‘girish uchun tanlanadi, degan fikrni ilgari surmoqchimiz. Bu talqinni P.Nyumark “tarjima usublari butun matnga bog‘liq bo‘ladi, tarjima usullari esa matndagi gaplar va tilning kichikroq birliklari uchun foydalaniladi”, degan fikrida ham ko‘rishimiz mumkin.

Katford tarjimaning mashhur uchta turi: so‘zma-so‘z tarjima (word-for-word translation), erkin tarjima (free translation) va literal translation turlarini ham tanishtirgan. U ushbu tarjima turlariga quyidagicha tarif beradi:

“Word-for-word translation generally means what it says: i.e. is essentially rankbound at word-rank (but may include some morphemes-morphemes equivalences). Free translation is always unbounded—equivalences shunt up and down the rank scale, but tends to be at the higher ranks—sometimes between larger units than the sentence.

Literal translation is between word-for-word translation and free translation. It may start, as it were, from a word-for-word translation, but make changes in conformity with TL grammar (e.g. inserting additional word, changing structure at any rank, etc.); this may make it a group-group or clause-clause translation”.²

So‘zma-soz tarjima asosan aslyat va tarjima tilidagi grammatik struktura bir xil bolganida qollaniladi. Sababi bunaqa vaziyatlarda grammatik o‘zgarish yuz bermaydi. Tarjima jarayonida biror matnni bir tildan ikkinchi tilga o‘girar ekanmiz, matndagi ikki jihatga alohida e’tibor berish kerak. Bular shakl va ma’no. Larson “Meaning based translation” asarida quyidagi fikrlarni bildiradi: “Because a given 30 text has both form and meaning, there are two main kinds of translations. One is form-based and the other is meaning-based”. Shaklga asoslangan tarjima aslyat tilidagi shaklga mos bo‘lishga harakat qiladi va so‘zma-so‘z tarjima (literary translation) nomi bilan ma’lum. Manoga asoslangan tarjima aslyat tilidagi matnning ma’nosini tarjima tilida tabiiy shakllarda yetkazish uchun barcha harakatlarni amalga oshiradi.

Bunday tarjima idiomatik tarjima (idiomatic translation) deb ataladi. Buni yana shunday ifodalashimiz mumkinki, so‘zma-so‘z tarjima (literal translation) aslyat

²To‘xtasinov I.M., Yo‘ldoshev U.R. “Badiiy tarjmani o‘qitishning lingvistik va metodik asoslari” Monografiya. - Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2023. – 174 bet.

tilidagi shaklni moslashtirishga urinsa, idiomatik tarjima (idiomatic translation) asliyat tilidagi ma'noni ifodalashga urinadi. So'zma -so'z tarjima -asliyat tilining strukturasi ko'zgusi bo'lib, tarjimani tushunishni qiyinlashtiradi va asl ma'noni buzib ko'rsatishi mumkin. Ideomatik tarjima-tarjima tili strukturasi amal qiladi va asl manoni tarjima tilida tabiiy usulda ifodalaydi.

Erkin tarjima-koproq tarjima tili strukturasi amal qiladi, asl manbaning ba'zi qismlari o'zgartirilishi yoki buzilishi mumkin. Uslublar, til vositalarining nutqda ishlatilish yo'llari, fonetik, lug'aviy, frazeologik va grammatik birliklarning qo'llanish xususiyatlari tilshunoslik fanining uslubiyat bo'limida o'rganiladi. Uslub orqali so'zlovchi shaxs-kimsa, narsabuyumlarga, atrofda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildiradi.³

Tarjima uslublaridan foydalanish tarjimon ehtiyojiga bog'liq. U qaysi uslubdan foydalanishidan qat'iy nazar, tarjimadagi asosiy e'tibor asliyat tilidagi ma'lumotni tarjima tiliga a'lo darajada olib o'tishdir. P.Nyumark quyidagi tarjima uslublarini taklif qilgan: so'zma-so'z tarjima, gaplarni birma-bir tarjima qilish, asliyatga sodiq holda tarjima qilish, semantik tarjima, moslashtirish, erkin tarjima, idiomatik tarjima, kommunikativ tarjima, maishiy xizmat tarjimasi, nasriy tarjima, axborot tarjimasi, kognitiv tarjima, akademik tarjima. Ushbu uslublar asliyat matniga va tarjima matniga yaqin uslublar guruhiga ham bo'linadi. Asliyat tiliga yaqin uslublarga so'zma-so'z tarjima, gaplarni birma-bir tarjima qilish, asliyatga sodiq holda tarjima qilish va semantik tarjima usublari kirsam, tarjima tiliga yaqin uslublar deganda, erkin, moslashtirish, idiomatik va kommunikativ tarjima usublari nazarda tutiladi. P.Nyumark eng samarali tarjima uslublar kommunikativ va semantik tarjima usublari ekanligini ta'kidlaydi. Demak, P.Nyumark va M.Larsonlar mukammal tarjima yaratishda katta ahamiyat kasb etadigan eng asosiy uslublarni tanlash muhim, deb ta'kidlashadi. Shunday qilib, ingliz tilida "translation method" termini o'zbek tilida "tarjima uslub" deb talqin qilinadi. Tarjima usublari tarjimonning o'z maqsadiga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Yo'ldoshev U.R. "Tarjima nazariyasi" O'quv qo'llanma. – Samarqand "Samarqand davlat chet tillar instituti" nashriyoti, 2021. – 126b.

2. To'xtasinov I.M., Yo'ldoshev U.R. "Badiiy tarjimani o'qitishning lingvistik va metodik asoslari" Monografiya. - Samarqand: "Samarqand davlat chet tillar instituti" nashriyoti, 2023. – 174 bet.

3.Yo'ldoshev U.H. "Badiiy tarjimaning lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari" Monografiya. Samarqand: – "Samarqand davlat chet tillar instituti" nashriyoti, 2022. – 170 bet.

³ Yo'ldoshev U.H. "Badiiy tarjimaning lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari" Monografiya. Samarqand: – "Samarqand davlat chet tillar instituti" nashriyoti, 2022. – 170 bet.